

FAOL O'QITISH METODLARI ORQALI O'QUVCHILAR TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

X.Orziqulov *Qo'qon universiteti*
pedagogika va psixologiya kafedra v.b dotsenti
xusnidinorziqulov@gmail.com

D.Abdurashidova *Qo'qon universiteti*
xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 2-bosqich talabasi
durona6abdurashidova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada faol o'qitish metodlarining o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bahs-munozara”, “Venn diagrammasi”, “Fishbone” va boshqa usullarning o'quvchilarning mustaqil, tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlariga ta'siri o'rganiladi. Maqolada faol o'qitish metodlarining an'anaviy yondashuvlardan farqli jihatlari, ularning o'quvchilarda bilimga ongli munosabatni shakllantirishdagi o'rni hamda o'quv jarayonini motivatsion jihatdan faollashtirishdagi roli yoritilgan. Natijada, faol metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning samarali vositasi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: faol o'qitish metodlari, tanqidiy fikrlash, interfaol ta'lim, tahliliy fikrlash, o'quv motivatsiyasi, ijodkorlik.

Annotation: This article analyzes the role and significance of active teaching methods in developing students' critical thinking skills. The study examines the impact of modern pedagogical approaches, particularly interactive methods such as “Brainstorming,” “Cluster,” “Debate,” “Venn Diagram,” “Fishbone,” and others on students' independent, analytical, and logical thinking abilities. The article highlights the differences between active teaching methods and traditional approaches, their role in fostering students' conscious attitude toward learning, and their function in enhancing motivation in the educational process. As a result, it is substantiated that lessons organized on the basis of active methods are an effective means of developing students' critical thinking.

Keywords: active teaching methods, critical thinking, interactive learning, analytical thinking, learning motivation, creativity.

Аннотация: В статье анализируется роль и значение активных методов обучения в развитии критического мышления учащихся. В статье рассматривается влияние современных педагогических подходов, в частности интерактивных методов, таких как «Мозговой штурм», «Кластер», «Дебаты», «Диаграмма Венна», «Рыбья кость» и других, на самостоятельность,

аналитическое и логическое мышление учащихся. В статье рассматриваются различия между активными методами обучения и традиционными подходами, их роль в формировании осознанного отношения учащихся к обучению и функция в повышении мотивации образовательного процесса. В результате обосновывается, что уроки, организованные на основе активных методов, являются эффективным средством развития критического мышления учащихся.

Ключевые слова: активные методы обучения, критическое мышление, интерактивное обучение, аналитическое мышление, мотивация обучения, креативность.

Kirish

“Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida eng katta kuch — bu bilimli, tafakkuri yuksak, mustaqil fikrlaydigan yoshlarimizdir. Ta’lim tizimi ularning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qilishi lozim.”

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev.

Bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy maqsadi — shunchaki ma’lumot berish emas, balki o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat. XXI asr kompetensiyalari orasida tanqidiy fikrlash yetakchi o‘rinda turadi. Chunki tez o‘zgarayotgan axborot muhitida o‘quvchi o‘z qarashini asoslay olishi, ma’lumotlarni tahlil etishi, muammolarga ijodiy yondashishi zarur. Pedagogik jarayonda bu maqsadga erishishning samarali yo‘llaridan biri — faol o‘qitish metodlarini qo‘llashdir. An’anaviy darslarda o‘quvchi asosan tayyor bilimni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etsa, faol o‘qitish texnologiyalarida u bilimni o‘zi izlaydi, tahlil qiladi, xulosa chiqaradi va o‘z fikrini asoslaydi. Bu esa o‘quvchining tanqidiy fikrlash, tahlil, muloqot va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Milliy o‘quv dasturi”da ta’lim jarayonida innovatsion va interfaol metodlardan keng foydalanish, o‘quvchilarning fikrlash mustaqilligini rivojlantirishga e’tibor qaratish belgilangan. Shu bois, faol o‘qitish metodlari nafaqat dars samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchini mustaqil fikr yurituvchi, tahliliy qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida shakllantiradi.

Asosiy qism Interfaol texnologiyalar - bu o‘qituvchi va o‘quvchilarga joyni almashtirishga yordam beradigan usullar. Guruhlarda muloqot qilish, ma’lumotlar ustida ishlash, talabalar o‘z-o‘zini o‘rganish uchun yangi imkoniyatlarni kashf etadilar. Bu talabalar bir-biri bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladigan, umumiy muammoni hal qilishda ishlaydigan faoliyatni yaratishga qaratilgan ish uslublari va usullarining butun majmuasidir. Interfaol texnologiyalar maktablarda seminarlar, bahs-munozaralar, muammoli ma’ruzalar, munozaralar orqali amalga oshiriladi, bunda o‘quvchilar o‘z fikrlarini bildirishlari, o‘z fikrini bahslashishni o‘rganishlari mumkin. Pedagogik

texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri -bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlarga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatli, o'qituvchi o'quvchining fikrini xech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi, natijada o'quvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'quvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. e'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'quvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda xech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. [1]

Ma'lumki, kishi bilayotgan va o'zlashtirayotgan narsaga tanqidiy munosabatda bo'lmasa, bilish faoliyatida tafakkurning mustaqiligi bo'lmaydi. O'zbekiston uchun mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Shu sababli maktab akademik litsey, kasb-hunar kollej va texnikumlar, oliy o'quv yurtida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda o'quvchilarning bilish faolyatini faolashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini takomilashtirish kerak. Biroq tanqidiy fikrlash o'z-o'zidan shakllanmaydi. Foydali axborot va fikrlarni olish bo'yicha tajriba, malaka ko'nikmalar hosil qilishlari kerak. Tanqidiy fikrlash - o'qish predmeti emas, balki o'qitish natijasidir. Bu g'oyalarni va ularning ahamiyatini ham ko'p fikrlilik nuqtai nazaridan ko'rib chiqish hamda ularni boshqa g'oyalar bilan taqqoslashdir. Birinchi bosqich - davat bosqichi deb ataladi. Davat bosqichida o'qitishda interfaol metodlardan foydalangan holda o'quvchi talabalar topshiriq olishi, "Aqliy hujum" metodi orqali avval bilganlari yoki bilaman deb o'ylaganlarini ro'yxatini tuzishlari mumkin. Bunda "Aqliy hujum" yakka yoki juftlikda, keyin esa butun guruh ishtirokida o'tkaziladi. Biror o'quvchi talaba guruhdagi "Aqliy hujum" jarayonidagi fikrlarni to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishdan qat'i nazar, qanday bo'lsa, shu holda doskaga yozadi. So'ngra o'qituvchi o'quvchi talabalarga mavzuga bevosita aloqasi bo'lgan, lekin muhokama qilinmagan savollarni berish mumkin. Ushbu bosqich davomida o'qituvchi imkoni boricha kam gapirib, o'quvchi talabalarga ko'proq gapirishga imkoniyat yaratishi muhim. Lider o'quvchi talabaning asosiy vazifasi yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi sifatida chiqishi va sinfda yoki guruhda fanlarni to'liq o'zlashtirmaydigan, o'quv jarayonida sust, fikrlash qobiliyati etarli rivojlanmagan o'quvchi talabalarning fikrlarini ham

diqqat bilan tinglashdan iborat. Bu bosqichda pedagogik faoliyatning bir nechta muhim turlari amalga oshiriladi. Birinchidan, ta'lim oluvchi mavzu to'g'risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa uni o'z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko'rib chiqiladigan mavzu haqida o'ylay boshlashga majbur etadi. Shuni doimo esda tutish kerakki, agar axborot o'quvchi talabaga unda mavjud bo'lgan bilimlar majmuiy bilan bog'lanmasdan taklif etilsa, tez orada unitilib ketadi. Chunki ta'lim jarayoni yangi bilimlarni egallash va to'plash jarayonidir.

Ikkinchi bosqich anglash bosqichidir. Bu bosqichda o'quvchi talaba yangi axborot yoki fikrlar bilan muloqatga kirishadi. Bu muloqat matnni o'qishi, filmni ko'rish, nutqni tinglash yoki tajribalar o'tkazish kabi shakllarda bo'lishi mumkin. Bu bosqich o'qitish jarayonida o'qituvchining o'quvchi talabalarga eng kam ta'sir qiladigan bosqichidir. Aynan bosqichda o'quvchi talaba mazkur ishda mustaqil va faol ishtirok etishi kerak. O'qitishning shunday strategiyalari borki, ular doim faoliyati sust, fikrlash qobiliyati etarli darajada rivojlanmagan o'quvchi talabalarining faolligini yuqori darajada ushlab turadi. Masalan, 1986 yilda Vagan va Estez tomonidan shaxsiy kuzatish uchun taklif etilgan insert metodi (samarali o'qish va tanqidiy fikrlash uchun belgilarning interaktiv tizimi) mavjud. Insert metodi o'qish jarayonida o'zligini anglashni faol kuzatish uchun o'quvchi talabalarga imkon beradigan kuchli quroldir. Anglash bosqichining amalga oshirilishi bilim orttirishi jarayonida muhim ahamiyatga ega, chunki o'quvchi talabaning qobiliyati sust bo'lsa, uni o'qitish imkoniyatini boy berishi mumkin. An'anaviy ta'limda, afsuski, bunday holatlar tez-tez uchray turadi.

Uchinchi bosqich fikrlash bosqichidir. Bunda o'quvchilar yangi bilimlarni mustahkamlaydilar, yangi tasavvur va tushunchalarni avval mavjud bo'lganlariga qo'shib, o'zlashtiradilar. Aynan fikrlash bosqichida bir nechta muhim maqsadga erishish yo'llari rejalashtiriladi. Birinchi navbatda o'quvchi talabalar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari orqali ifodalashga harakatlar qilishlari kerak. Bu yangi tasavvurlarni va tanqidiy fikrlarni hosil qilish uchun juda zarur. Tanqidiy fikrlashning da'vat bosqichining ahamiyati shundan iboratki, unda yangi bilimlarni mustaqil tanlangan maqsad uchun ishlatish o'quvchi talabada kuchli bo'ladi. Ifodali fikrlashning ikkinchi bosqichini anglashda esa yangi axborot da'vat bosqichida faollashtirilgan axborot bilan bog'lanadi. Yangi o'quv materiallarining tushunilishiga erishish bu bosqichning muhim vazifasi hisoblanadi. O'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish va rivojlantirish oson ish emas. Albatta, buning uchun tanqidiy fikrlashning shakllanishi va rivojlanishiga yordam beruvchi quyidagi muayyan muhit va shart-sharoitlar yaratilishi kerak;

- o'quvchilarga mustaqil fikr yuritish uchun imkoniyat yaratib berish va ularni diqqat bilan tinglashga o'rgatish;

- turli-tuman g'oya va fikrlarni qabul qilish, saralash, tanqidiy va ijodiy baholash;

- o'quvchilarning o'quv jarayonidagi faolligini ta'minlash; - o'quvchilarning o'z tanqidiy fikrlarini bayon etganlarida kulgiga qolmasliklariga qat'iy ishonitirish;
- har bir o'quvchi talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish;

- tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlashi lozim. O'zaro fikr almashishda o'quvchilardan diqqat bilan tinglash, o'zining qarashlar tizimini so'zlovchiga zo'rlab o'tkazish va boshqa so'zlovchilarni tuzatib turishdan o'zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunda o'quvchi talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Keng doiradagi munozara oqibati o'laroq o'quvchi talaba o'zlariga tegishli bo'lgan g'oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga qobiliyati yanada orta boradi. Isterlar tuzish. "Klaster" lotincha so'z bo'lib, "g'uncha bog'lam" ma'nosini anglatadi. Klaster (axborotlarni yoyish) metodi, pedagogik strategiya bo'lib, o'quvchi talabaning u yoki bu mavzu bo'yicha erkin va bimalol o'ylashiga yordam beradi. U faqat g'oyalar orasidagi bog'lanishlarning fikrlashni ta'minlash imkoniyatini beradigan tuzilmani aniqlab olishni talab qiladi. U fikrlashning oddiy shakli emas, balki miya faoliyati bilan bog'lanadi. Klasterlar tuzish qoidasi quyidagi usullarda amalga oshiriladi: 1. Aqlingizga kelgan barcha fikrlarni yozib oling. Bu fikrlarni muhokama qilmang, shunchaki, yozib olavering. 2. Xatni (matnni) kechiktiradigan imlo va boshqa omillarga ham e'tibor bermang. 3. Sizga berilgan vaqt nihoyasiga etmagunga qadar yozishdan to'xtamang. Miyangizga fikr kelishi to'xtab qolsa, toki yangi fikrlar kelgunga qadar qog'ozda nimalarnidir chizib o'tiring. 4. Imkoni boricha bog'lanishi mumkin bo'lgan g'oyalarni tizib chiqing. G'oyalarning oqimi sifatida va ular orasidagi aloqalarni chegaralab qo'ymang. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o'rganilayotgan voqea (hodisa, qoida) yoki faktga o'quvchilarning qiziqishini uyg'otish bo'lib, ularda savol berish zaruriyatini keltirib chiqarishdir. Keyin berilgan savollarni ma'lum faraz (gipoteza)lar shaklida ifodalab, ularni tekshirishni amalga oshirishga harakat qilinadi. [2]

O'qish va tahlil Boshlang'ich sinfda o'quvchilarga kitoblar, hikoyalar va maqolalar o'qish orqali tahliliy fikrlashni rivojlantirish mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar o'qigan matnni tahlil qilib, undagi asosiy g'oyalarni, qahramonlarni va ularning xatti-harakatlarini baholashlari kerak bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilar o'zlarining fikrlash va tahlil qilish qobiliyatlarini oshirishadi.

Savol-javob usuli Bu usul orqali o'quvchilarga murakkab savollar berilib, ulardan javob olishga harakat qilinadi. Savollar o'quvchilarga o'ylash, tushunish va o'z fikrlarini izchil tarzda ifoda etishga yordam beradi. Bu metod bolalarni to'g'ri va aniq fikr bildirishga undaydi.

Ijodiy yozuvlar va insho yozish O'quvchilarga mustaqil insho yozish topshiriqlari berish orqali ularning fikrlarini tizimli va mantiqiy ravishda ifoda etishlariga yordam beriladi. O'quvchilar o'z fikrlarini aniq va asosli tarzda bayon

qilishga o'rgatiladi. Bu, o'z navbatida, ularning fikrlash tizimini va mantiqiy yondashuvlarini rivojlantiradi.

Guruhda muhokama O'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, ularga muayyan mavzu asosida muhokama olib borish vazifasi beriladi. Bu metod orqali o'quvchilar o'z fikrlarini boshqalar bilan baham ko'rish va ulardan o'rganish imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, ularning fikrlarini argumentlar asosida himoya qilishni o'rganishadi.

Muammo asosida o'rganish Bu metodda o'quvchilarga real hayotdagi muammolarni hal qilish topshiriqlari beriladi. O'quvchilar muammoni tahlil qilib, uning yechimini izlashi kerak. Bu metod orqali o'quvchilar nafaqat tanqidiy fikrlashni, balki mas'uliyatni ham o'rganishadi. Bunday yondashuvlar o'quvchilarda faqatgina bilimlar to'plashni emas, balki ularni tanqidiy va ijodiy tarzda qayta ishlashni, tahlil qilishni va yangi qarorlar qabul qilishni o'rgatadi. Bu esa kelajakda jamiyatga foydali, mas'uliyatli va mantiqiy fikrlovchi shaxslar yetishtirishda katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi fikrlar isboti sifatida boshlang'ich sinflarning amaldagi ona tili fani darsligi asosida metodlarni yoritamiz.

«Tutuq belgisi» metodi Aqlni rivojlantiruvchi, ta'lim va tajriba beruvchi ushbu metodni 3- sinf ona tili darsligida keltirilgan «Tutuq (') belgisi» mavzusida qo'llashni ko'rib chiqamiz.

Metodning maqsadi: Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: o'quvchilarga tutuq belgisining qo'llanilishiga oid misollar keltirish, o'z fikrlarini tezkor va mantiqiy tarzda ifoda etish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. O'quvchilarning qiziqishini oshirish: musiqa va o'yin orqali o'quvchilar diqqatini jalb qilish, mavzu bo'yicha qiziqish uyg'otish va o'rganish jarayonini interaktiv qilish. Bilimlarni mustahkamlash: tutuq belgisining qo'llanilishi haqida o'rganilgan bilimlarni amaliy tarzda mustahkamlash, o'quvchilarga turli misollarni keltirishga yordam berish. Mavzuni o'rgatish va ijodiy yondashuvni shakllantirish: o'quvchilarga tutuq belgisi bo'yicha ijodiy fikr va misollar keltirishni o'rgatish, shu bilan birga ularni tezkor fikrlashga va javob berishga rag'batlantirish. [3] O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlash ikki yo'nalishda amalga oshirilishi lozim: yangilikni idrok qilishga innovatsion shaylikni shakllantirish; yangicha harakat qila olishga o'rgatish. Innovatsion faoliyatni tashkil etishda talabalarning o'quv-bilish faoliyati va uni boshqarish alohida ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda talabalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli talabalarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi; o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashi uchun yordam beriladi; O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan

birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orziqulov, X., & Usanov, B. (2025). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARI O 'RTASIDA EKOLOGIK ONG VA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH. " GLOBAL MUNOSABATLAR NAZARIYASI: YOSHLARNING TARAQQIYOT G'OYALARI" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari, 1(2), 22-26.
2. M. F. Dadaxodjayeva, O'. A. Abdurazzaqov. (2022) O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.
3. Orziqulov, X. (2024). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY PEDAGOGIK KOMPONENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 1(5), 228-230.
4. Tolkin, O. K. (2023). METHODOLOGICAL STRUCTURE OF SOCIAL-PEDAGOGICAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(11), 309-311.